



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 09 | pp. 1-6 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

TO'QIMACHILIK SOHASINING MILLIY IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA MAHSULOT EKSPORTI HAJMINI OSHIRISH IMKONIYATLARI



Azizillayev Mirzo-Ulug'bek Oybek o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada to'qimachilik sohasining milliy iqtisodiyotdagi o'rni ochib berilgan va to'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmini oshirish masalalari yoritilgan. To'qimachilik sanoati korxonalarining mahsulot ishlab chiqarish va uni eksport qilishdagi ahamiyati bayon qilingan. To'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmini oshirish bo'yicha xulosalar shakllantirilgan, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: milliy iqtisodiyot, to'qimachilik sohasi, to'qimachilik sanoati korxonalari, to'qimachilik mahsulotlari, mahsulot hajmi.

Аннотация. В данной статье раскрывается роль текстильной промышленности в экономике страны и освещаются вопросы увеличения объёма экспорта текстильной продукции. Описано значение предприятий текстильной промышленности в производстве и экспорте продукции. Сделаны выводы, разработаны предложения и рекомендации по увеличению объёма экспорта текстильной продукции.

Ключевые слова: национальная экономика, текстильная промышленность, предприятия текстильной промышленности, текстильная продукция, объём продукции.

Abstract. This article explores the role of the textile industry in the national economy and discusses ways to increase textile exports. It describes the importance of textile enterprises in the production and export of textiles. Conclusions are drawn, and proposals and recommendations for increasing textile exports are developed.

Keywords: national economy, textile industry, textile enterprises, textile products, production volume.

Kirish

To'qimachilik sohasining milliy iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyati katta hisoblanadi. Bundan tashqari to'qimachilik sanoati mahsulotlari eksporti hajmini oshirish ham juda muhimdir.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda to'qimachilik sanoati tarmog'ini rivojlantirish bo'yicha bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinganligi, ushbu sohani rivojlantirish uchun hukumat tomonidan katta e'tibor qaratilayotganligining dalolatidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 16-yanvardagi "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6-son Farmonida, "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatining

investitsion jozibadorligini va raqobatbardoshligini yanada oshirish, sohaning eksport salohiyatini kengaytirish, mahalliy to'qimachilik mahsulotlarining xorijiy bozorlarga kengroq kirib borishi uchun sharoitlar yaratish"ga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishni belgilaydi [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "sanoatning to'qimachilik tarmog'idagi qator kamchiliklar, jumladan, tadbirkorlarning tijorat kreditidan qarzдорligi va brendlar bilan hamkorlikning yetarli emasligini tanqid qildi... Qayd etilishicha, to'qimachilik mamlakat iqtisodiyotining 3 foizini, sanoatning 14 foizini tashkil qiladi. So'nggi besh yilda tarmoqda 3,5 milliard dollarlik 396 ta yirik korxona ishga tushgan, ishlab chiqarish 10 milliard dollarga yetgan. Sohada 500 mingdan ortiq odam band. Bu sanoatda band jami aholining 20 foiziga teng. Shu bilan birga, sohada ishlab chiqarish va eksport ko'rsatkichlari sekinlashishi kuzatilmoqda, bu esa xalqaro vaziyatni inobatga olgan holda ishlab chiqarish, ish o'rinlari va eksportni saqlab qolish bo'yicha tezkor choralar ko'rishni taqozo etmoqda" [2] deb ta'kidlab o'tdilar.

Shuni inobatga olgan holda mamlakatimizda jahon bozoriga nafaqat paxta xomashyosini, balki tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ham eksport qilish borasida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Binobarin, zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini jalb qilish asosida sanoat salohiyatidan samaraliroq foydalanish hamda paxta-to'qimachilik klasterlari kabi yangi bozor tuzilmasini yaratish va rivojlantirish uchun zamonaviy savdo tamoyili joriy etilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, "2024 yilda respublikada to'qimachilik sanoati jami sanoat mahsulotlarining 13,8 foizini va yalpi ichki mahsulotning 2,8 foizini tashkil qildi" [3].

Darhaqiqat, jahonda qayta ishlash sanoati mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun muhim va hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan yirik sanoat tarmog'i sifatida qaraladi. Sanoatning kuchli qayta ishlash sektori mamlakatning texnologik qudratini ifodalaydi. Uning pasayishi yoki qisqarishi iqtisodiyotning tanazzul belgisi sifatida ko'riladi. Bu o'z navbatida, qayta ishlash sanoati muhim tarmoq ekanidan dalolat beradi. Mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmog'i sifatida to'qimachilik sanoatini jadal sifat jihatidan rivojlantirishga qaratilgan kompleks va maqsadli dasturiy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu munosabat bilan 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish. Sanoatning yetakchi tarmoqlari va iqtisodiyotni yanada liberallashtirish hamda transformatsiya jarayonlarini yakunlash. To'qimachilik sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko'paytirish" vazifalari belgilandi [4]. Ushbu vazifalarni samarali amalga oshirish to'qimachilik sanoatida resurslarni tejashni ko'paytirish va eksport hajmini oshirishni taqozo etadi. Bu esa, sohaning milliy iqtisodiyotdan o'rni kattaligi va muhim ahamiyat kasb etishini bildiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

To'qimachilik sanoatining O'zbekiston iqtisodiyotidagi o'rni va bugungi holatini tahlil qilishda bir qator olimlar ushbu tarmoq faoliyatini takomillashtirish yuzasidan turli fikr-mulohazalarni bildirganlar. Soha mutaxassislaridan biri X.Qodirov "Namangan viloyatida tekstil mahsulotlari eksportini marketing strategiyalari asosida rivojlantirish

yo'llari" mavzusida ilmiy-tadqiqot olib borgan, u o'zining ilmiy izlanishlarida tekstil mahsulotlari eksportini marketing strategiyalari asosida rivojlantirish masalalariga e'tibor qaratgan [5]. Iqtisodchi olim Z.D.Adilova esa, o'z ilmiy izlanishlarida "O'zbekiston Respublikasining eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan xalqaro marketingning ilmiy konsepsiyasini rivojlantirish hamda xalqaro bozorlarning jozibadorligini baholash uslubiyatlarini takomillashtirish asosida milliy mahsulotlarni tashqi bozorlarga yo'naltirishning marketing strategiyasini ishlab chiqishni maqsad qilgan" [6].

Tadqiqot metodlari

Tadqiqotda analiz, sintez, guruhlash va boshqa metodlardan foydalanilgan. Maqolaning maqsadiga erishish uchun asosiy statistik ma'lumotlar yig'ilib tahlil qilingan. Ushbu ma'lumotlar O'zbekistonda to'qimachilik va mahsulotlar ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan xomashyo hajmi to'g'risidagi statistik ma'lumotlar, ularning eksporti va importi bo'yicha statistik ma'lumotlar kabilardir.

Tahlil va natijalar

O'zbekiston to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksport qilish uchun katta imkoniyatlarga ega. Bu sohada tayyor to'qimachilik mahsulotlarini eksport qilish xomashyo eksportidan 4-5 barobar ko'p foyda keltirishi mumkin. Shu bilan bir qatorda to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sishi yangi ish o'rinlari yaratish, aholi bandligi va turmush darajasini oshirish imkoniyatlarini oshiradi. "To'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 67,1 trln so'mga yetkazilishi ta'minlandi (o'sish 110,7 foiz). 470 ming tonna ip kalava (101%), 673 mln kv m gazlama (109%), 178 ming tonna mato (111%), 261 mln juft paypoq (105 %) va 1,7 mlrd dona tikuv-trikotaj mahsulotlari (115%) ishlab chiqarildi. Shu jumladan, "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi a'zo korxonalaridan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 23 trln so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,8 foizni tashkil etdi. Ip kalava mahalliy korxonalar tomonidan 64,5 foizi qayta ishlanishi hisobiga umumiy ishlab chiqarishda qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushi 58 foizga yetkazildi. Hududiy investitsiya dasturi doirasida umumiy qiymati 146,2 mln dollarlik 11 ta loyiha foydalanishiga topshirilishi natijasida 3 mingta yangi ish o'rinlari yaratildi" [3].

Shu bilan birga "To'qimachilik sohasida 2025-yilning 1-yarim yilligida 1 241,8 mln dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksport qilindi (rejaga nisbatan 88,5 %, o'sish 83,0 %). Eksport nomeklaturasida tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlar ulushi 50 % ga yetkazilib, 617,9 mln dollarni tashkil etdi (o'tgan yil mos davriga nisbatan o'sish 108 foiz). Moliya – davlat budjetiga 1,5 trln so'mlik to'lovlar amalga oshirildi. 2025 yilda yirik to'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida mahsulotlar ishlab chiqarish tannarxini 8,3 foizga pasaytirish rejalashtirilgan. Joriy yilning yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra 312,5 mlrd so'mga tannarx pasaytirildi" [3].

To'qimachilik sanoatining mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni va ahamiyati ko'rsatkichlari qatoriga quyidagilar kiradi: to'qimachilik sanoatining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi; to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksport qilish hajmi; hududlar bo'yicha to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi; tarmoqqa investitsiyalar kiritish hajmi, to'qimachilik mahsulotlari eksport tarkibi.

"O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi ma'lumotlariga ko'ra, "O'zbekiston mahsulotlari eksport qilinayotgan mamlakatlar soni 2024 yilda 200 dan oshdi. 2016 yilda

bu ko'rsatkich 137 tani tashkil qilgan. So'nggi 7 yilda tayyor, yanada yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushining ortishi hisobiga O'zbekistonning eksport imkoniyatlari sezilarli darajada oshgan. Mamlakat tashqi savdosi bo'yicha o'tgan yillar tahliliga ko'ra, Yevropa mamlakatlarining ulushi 40,8 foiz, Osiyoning ulushi 50,3 foiz, Amerikaning ulushi 2,8 foiz, Afrikaning ulushi 0,2 foiz, Avstraliya va Okeaniyaning ulushi 0,02 foizni tashkil etadi. Xususan, 2024 yilda 2,9 milliard dollarlik to'qimachilik mahsulotlari dunyoning 77 mamlakatiga eksport qilingan" [7].



1-rasm. To'qimachilik mahsulotlari eksporti ulushi, % [8] (2025-yil yanvar-iyun)

2025-yil yanvar-iyun oylari yakuni bo'yicha 1 268,9 mln. AQSH dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 7,5 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 17,0 % ga kamaydi.

"... jahon bozorining yangi segmentlariga chiqish hisobiga O'zbekiston jahonning 65 dan ortiq mamlakatiga mahalliy to'qimachilik mahsulotlarini yetkazib berishni yo'lga qo'ydi. Rossiya, Xitoy, Turkiya va Qirg'iziston - bizning asosiy savdo hamkorlarimiz hisoblanadi. Mamlakat to'qimachilik mahsulotlarining taxminan 80 foizi ushbu mamlakatlarga eksport qilinadi" (2-rasm).



2-rasm. O'zbekiston hududlarining to'qimachilik sanoati eksporti [9]

Eksportga yo'naltirilgan va mahalliyashtirilgan ishlab chiqarish quvvati tufayli iqtisodiyotning muhim tarmog'i sifatida to'qimachilik sanoati uzluksiz rivojlanmoqda. Sanoat mahsulotlari aholining asosiy ehtiyojlarini qondirishdan tashqari, boy estetik xususiyatlari bilan ajralib turishi lozim. Bu esa, ularning assortimentini oshirishga alohida talablarni ko'paytiradi. Ular quyidagilarni talab qiladi: to'qimachilik mahsulotlariga yangi talabni shakllantirish, shu bilan raqobat muhitida ustunlikka ega bozor segmentini tanlash; yangi mahsulot ishlab chiqarish uchun sharoit yaratish, sifatga bo'lgan talabni oshirish; ichki bozorni to'qimachilik mahsulotlari bilan boyitish; mazkur mahsulotlar bo'yicha jahon tan oladigan brendlarni yaratish va aholi ehtiyojlarini qondirish.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bozor kon'yunkturasi korxonalarni assortiment tizimini ishlab chiqishga majbur qiladi. Shu bilan birga, har bir xo'jalik yurituvchi subyekt raqobatdosh xaridorlarni jalb qilish uchun tovarlar assortimentini kengaytirish, yangi mahsulotlarni yuqori ko'rsatkichli realizatsiyasini amalga oshirishni marketing strategiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida qaralishi lozim.

Xulosa

Fikrimizcha, "O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasi tizimidagi korxonalarda ishlab chiqarishni yaxshilash, tarmoq ishlab chiqarish umumiy hajmida tayyor mahsulotlar ulushini oshirish va tayyor mahsulot tannarxini minimallashtirish zarur. Innovatsiyalardan samarali foydalanish korxona resurslarini tejashga xizmat qiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, bozor munosabatlari sharoitida texnik va texnologik resurslarni tejash bo'yicha chora-tadbirlar muhimligiga qaramay, uning tashkiliy-iqtisodiy tarkibiy qismlarini faollashtirish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tejamkorlikning tashkiliy-iqtisodiy omillarini amalga oshirish hamda sun'iy tola aralash mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantirish kerak. Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, raqobatda eng katta muvaffaqiyatga yuqori texnologiyali klasterlarga ega mamlakatlar va mintaqalar erishgan.

Mamlakatimiz to'qimachilik sohasida klasterlashtirishdan foydalanish yuqori natijalarga erishishga sabab bo'ladi. Shundagina raqobatbardosh, xalqaro standartlarga javob beradigan mahsulotlar hajmini oshirish va soha bo'yicha maqsadli strategik prognozga erishish mumkin.

To'qimachilik mahsulotlari eksportini kengaytirish uchun quyidagi masalalarga e'tiborni kuchaytirish lozim:

- yuqori qo'shilgan qiymatga ega tayyor mahsulot ishlab chiqarilgunga qadar ip va matolarni sanoat usulida davomli qayta ishlashni ta'minlash;
- eksportning istiqbolli yo'nalishi sifatida innovatsion to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksport qilishni o'zlashtirish;
- hududning milliy rang-barangligi, mahalliy an'analar, zamonaviy dizayn va modani hisobga olgan holda tayyor to'qimachilik mahsulotlarining xalqaro mintaqaviy forumlarini o'tkazish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 16-yanvardagi "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF-6-son Farmoni. <https://www.lex.uz/ru/docs/7330228>.

2. Prezident to'qimachilik tarmog'idagi kamchiliklarni tanqid qildi. <https://qalampir.uz/news/prezident-tuk-imachilik-tarmogidagi-kamchiliklarni-tank-id-kildi-122725>
3. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari. <https://www.stat.uz/uz/>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi "2022– 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>
5. X.Қодиров. Тикув-трикотаж корхоналари экспорт салоҳиятини халқаро маркетинг стратегиялари асосида ошириш. 08.00.11 – Маркетинг. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент - 2020 йил. 59-бет; X.Қодиров. Тикув-трикотаж корхоналари экспорт салоҳиятини оширишда халқаро сифат менежментининг ўрни. Экономика и инновационные технологии, (3), 125–132. https://inlibrary.uz/index.php/economics_and_innovative/article/view/10808
6. Adilova Z.D., "Xalqaro bozorlarga eksport mahsulotlarini yo'naltirishning marketing strategiyalari". I.f.d. diss.avtoref. -T. 2008. 31-b.
- 7 https://uza.uz/uz/posts/29-milliard-dollarlik-toqimachilik-mahsulotlari-eksport-qilindi_679300
8. Ўзбекистон Республикаси миллий статистика қўмитаси. Ўзбекистон республикасининг ижтимоий-иқтисодий ҳолати. 2025 йил январь-июнь. Тошкент - 2025 й.
9. Тўқимачилик саноати: экспортни ошириш учун нималарга эътибор қаратиш лозим? <https://yuz.uz/news/toqimachilik-sanoati-eksportni-oshirish-uchun-nimalarga-etibor-qaratish-lozim>

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

